



## QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI JADAL RIVOJI.

**Sattorova Hikmatullo Hayatullayevich**

*Andijon Agroservis MTP, MCHJ*

*Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish.*

**Islomova Dildoraxon Fatxiddin**

*Andijon qishloq xo'jaligi va*

*Agrotexnologiyalari Instituti qishloq xo'jaligi*

*Maxsulotlarini saqlash dastlabki ishlash*

*Texnologiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** maqolaning qisqacha mazmuni shuki, bugungi kunda qishloq xo'jaligining axvoli, rivoji uchun ytaratilyotgan shart-sharoitlar, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish kabi fikr mulohazalarini yoritib beradi.

**Kalit So'zlar:** avtomatlashtirish, dronlar, robototexnika,

Common IELMamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha ulkan salohiyatga ega. Bozorlarimiz to'kin, xalqimiz rizqi mo'l-ko'l bo'lishidan tortib eksportdan qo'shimcha daromad topishgacha bo'lgan juda ko'p masalalar shu soha bilan bog'liq.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga ko'paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g'allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi.

Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumдорligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi.

TS mRobototexnika va dronlardan tortib, kompyuter dasturiy ta'minotiga qadar bo'lgan texnologiyalarning yangi yutuqlari zamонавиу qishloq xo'jaligini butunlay o'zgartirib yubordi. Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirish texnologiyasining asosiy maqsadi, oddiy ishlarni bajarishdir. Fermer xo'jaliklari tomonidan ko'pincha qo'llaniladigan ba'zi bir asosiy texnologiyalarga quyidagilar kiradi: o'rim-yig'im, avtomatlashgan traktorlar, ekish va begona o'tlardan tozalash vositalari. Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirilgan texnologiyalar sonining ko'paytirish, mavjud bo'lgan ishchi kuchi yetishmayotgan fermer xo'jaliklari oldida turgan muammolarni hal qilish orqali asosiy muammolarni hal qiladi. An'anaviy dehqonchilik jarayonlarini avtomatlashtirishning afzalliklari, ishchi kuchi yetishmasligi va dehqonchilikning ekologik toza maxsulot yetishtirish orqali juda katta ahamiyatga ega.

istakes (part 2): WritingQishloq xo'jaligida fermerlik harakatining rivoj topishi esa, yer resurslaridan samarali foydalanish agrotexnik jarayonlarni bajarishda bo'layotgan sarf-xarajatlarni kamayishini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarining takomillashib borishi





ham texnologik jarayonlarga bir qator yangiliklarni kiritishni taqozo etmoqda. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid chiqarilgan mamlakat Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini [1,2,3] hayotga tatbiq etilishi natijasida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga e'tibor yanada kuchaydi va mahsulot yetishtirish obyektlarining zamonaviy mashina va mexanizmlar bilan qurollanishi yana bir bosqichga ko'tarildi. Albatta, agrar sohada energetik imkoniyatlarning kengayishi, modernizatsiyalanishi, yetishtirilayotgan mahsulotlarning turi va hajmini ko'paytirishga, pirovardida, xalq farovonligini yanada oshirishga zamin yaratadi. Aynan shunday murakkab masalalarni eng qulay va energiya tejamkor texnika va texnologiyalardan foydalanib amalga oshirish mutaxassisdan chuqur nazariy bilim va malakaviy ko'nikmalarni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Obidov, R. Xalilov, S. Aliqulov, M. Djiganov, S. Nurmanov, A. Abdulmatalipov. "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish"

